

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

2024/3-SON  
ILLOVA TO'PLAM

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>B.A.Abduvaliyev</b>	
Farg'ona vodiysi hududida uy parrandalari gelmintlarining o'rganilishi bilan bog'liq ma'lumotlar .....	648
<b>M.R.Xolikulov, S.B.Xatamova</b>	
Farg'ona shahar tabiiy yer osti buлоq suvlарining gidroekologik holati.....	652
<b>M.X.Akbarova, M.A.Davidov, Z.N.Jo'rayev</b>	
Farg'ona vodiysi florasiда tarqalgan <i>Scutellaria</i> turkumi turlarining hayotiy shakllari tahlili .....	657
<b>T.Rahimova, M.X.Akbarova, S.Usmonov, O.A.Turdiboyev</b>	
Pyatayeva Anna Danilovna (1906 – 1981) .....	662
<b>M.X.Akbarova, O.Turdiboyev</b>	
<i>Scutellaria glabrata</i> (Lamiaceae) lektotipifikatsiyasi .....	667
<b>M.X.Akbarova, Turdiboyev, R.Y.Ruzimatov, M.R.Xolikulov</b>	
Xamidov G'ulom Xamidovich (1936–2024) .....	670
<b>M.A.Davidov, R.E.Soibnazarov</b>	
Bo'yoqbop drok-( <i>Genista tinctoria</i> ) o'simligini ayrim bioekologik xususiyatlari .....	674
<b>G.N.Shokirova</b>	
Agrotexnik usullar samaradorligini aniqlash .....	677
<b>I.P.Urinboev, F.P.Jumaboeva</b>	
Oпылление и плодоношение цветков вида липа ( <i>Tilia tomentosa</i> ), интродуцированного в ферганскую урбинофлору.....	682
<b>M.A.Davidov, I.P.Urinboev</b>	
Опылление и цветение видов липы во флоре города Ферганы.....	686
<b>M.A.Masodiqova</b>	
Eribidae oilasi vakillari va ularning zararkunandalik darajasi .....	689
<b>M.A.Masodiqova</b>	
Eribidae oilasi ( <i>Limantriya dispar</i> ) turining toksonomiyasiga oid o'zgarishlar va zararkunandalik darajasi .....	692
<b>V.Mahmudov, B.Y.Hamraliyev</b>	
Shohimardonsov havzasining noyob dorivor o'simliklari, ularni muhofaza qilish.....	695
<b>M.Q.Asadova</b>	
Poliploidiya va uning boshoqli o'simliklar seleksiyasidagi ahamiyati .....	698
<b>M.M.Mamajonova, V.Mahmudov</b>	
Farg'ona viloyati sharoitida dorivor <i>Cassia angustifolia</i> L o'simligining introduksiysi va istiqbollari .....	701
<b>S.M.Xaydarov, F.N.Mingboev</b>	
Akvakultura uchun ankistrodesmus mikrosuvu'tini Chu-13 ozuqa muhitida biomassasini orttirish .....	703
<b>S.M.Xaydarov, B.E.Nishonov, F.N.Mingboev</b>	
Baliqchilikda muxim ahamiyatga ega bo'lgan <i>Daphnia magna</i> biomassasini oshirishda mikrofitlardan foydalanish .....	706
<b>Z.A.Yusupova</b>	
Yozyovon cho'llari davlat tabiat yodgorligi florasi .....	709
<b>Z.A.Yusupova, F.B.Sayramov</b>	
Mavrak turlarining xalq tabobatida hamda tibbiyotda qo'llanilishi.....	712
<b>Z.A.Yusupova</b>	
O'zbekistonda uchraydigan Lamiaceae turlarining dorivor salohiyati va bioekologik xususiyatlari .....	717
<b>M.P.Yuldasheva</b>	
Farg'ona vodiysi kanallari algoflorasining taksonomik tahlili (JFMK, SHFMK, KFMK lari misolida) .....	721
<b>M.K.Aсадова</b>	
Нектарозапас медпродуктивных угодий южных областей Узбекистана и некоторые теоретические основы их использования .....	726
<b>B.Махмудов, М.К.Жабаралиева</b>	
Био-экологические свойства лекарственных растений ферганской долины применяющие при заболевании бесплодия .....	729



УО'К: 639.3:574.5

**BALIQCHILIKDA MUXUM AHAMIYATGA EGA BO'LGAN DAPHNIA MAGNA BIOMASSASINI OSHIRISHDA MIKROFITLARDAN FOYDALANISH**

**ИСПОЛЬЗОВАНИЕ МИКРОФИТОВ ДЛЯ УВЕЛИЧЕНИЯ БИОМАССЫ DAPHNIA MAGNA, ЧТО ВАЖНО В РЫБОЛОВСТВЕ**

**USE OF MICROPHYTES TO INCREASE THE BIOMASS OF DAPHNIA MAGNA, WHICH IS IMPORTANT IN FISHERIES**

Xaydarov Saidkamol Maxamadvaliyevich<sup>1</sup> 

<sup>1</sup>Farg'ona davlat universiteti botanika, bioteknologiya va ekologiya kafedrasi katta o'qituvchisi (PhD)

Nishonov Bekmurod Ermaxamad o'g'li<sup>2</sup>

<sup>2</sup>Toshkent davlat agrar universiteti I bosqich tayanch doktoranti

Mingbo耶v Farhod Ne'matillo o'g'li<sup>3</sup>

<sup>3</sup>Farg'ona davlat universiteti, magistranti

*Annotatsiya*

*Tadqiqotda baliqchilik sanoatida muxum ahamiyatga ega bo'lgan Daphnia magna biomassasiga mikrofitlarning ta'siri o'rganilan. Mikrofitlar bilan oziqlantirilgan Daphnia magna biomassasi tarkibidagi yog' va oqsl konsentratsiyasi tadqiq etilgan. O'rganilgan tajriba natijalariga asoslanib, Ankistrodesmus va Botryococcus mikrofitlari bilan yetishtirilgan Daphnia turlari biomassasidan baliq lichinkalarini yetishtirishda oziqa manbai sifatida foydalanan tavsiya etilgan.*

*Аннотация*

*В ходе исследования изучено влияние микрофитов на биомассу Daphnia magna, имеющей большое значение в рыбном хозяйстве. Исследовали концентрацию жира и белка в биомассе Daphnia magna, питавшейся микрофитами. На основании результатов эксперимента в качестве источника питания для выращивания личинок рыб рекомендуется использовать биомассу видов дафний, выращенных с микрофитами Ankistrodesmus и Botryococcus.*

*Abstract*

*In the study, the effect of microphytes on the biomass of Daphnia magna, which is of great importance in the fishing industry, was studied. The concentration of fat and protein in the biomass of Daphnia magna fed with microphytes was investigated. Based on the experimental results, it is recommended to use the biomass of Daphnia species grown with Ankistrodesmus and Botryococcus microphytes as a source of food for raising fish larvae.*

**Kalit so'zlar:** biomassa, mikrofit, Ankistrodesmus, Botryococcus, zooplankton, Daphnia, Chlorella, Scenedesmus

**Ключевые слова:** биомасса, микрофит, Ankistrodesmus, Botryococcus, зоопланктон, дафния, хлорелла, Scenedesmus.

**Key words:** biomass, microphyte, Ankistrodesmus, Botryococcus, zooplankton, daphnia, chlorella, Scenedesmus.

**KIRISH**

Demografik statistikaga ko'ra dunyo aholisi xozirgi kunga kelib 8 mlrd dan oshib ketganligini ko'rsatadi bu esa o'z navbatida dunyo aholisini oziq -ovqatga bo'lgan talabini oshiradi. Bu o'rinda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda baliqchilikning o'rnini beqiyosdir.

O'zbekiston respublikasida ham keyingi vaqtarda ko'rilibotgan chora-tadbirlar tufayli mamlakat iqtisodiyotining tarkibida baliqchilik sanoatining ulushi intensiv ortib bormoqda [1]. Respublikada baliqchilik tarmog'ini jadal rivojlantirish, baliq mahsulotlari ishlab chiqarishning zamonaviy va innovatsion uslublarini joriy etgan holda hajmlarini oshirish, sohani tartibga solish

## BIOLOGIYA

bo'yicha bir qator qonun hujjatlari qabul qilinib, ularning ijrosini sifatli va puxta ta'minlash choralari ko'rilmoxda [2].

Bu kunning dolzarb masalalaridan biri baliq va baliq mahsulotlari ishlab chiqarishda, baliqlarga ozuqa sifatida foydalaniladigan ozuqalarni ishlab chiqarish uchun katta miqdorda tejalishi zarur bo'lgan resurslardan foydalanilmoxda. Ushbuden kelib chiqqan xolda bugungi kunda ishlab chiqarish oson, mahalliy sharoitda tabiyy uchraydigan, sifat xar tomonlama standartlarga javob beradigan ozuqa mahsulotlari ishlab chiqarish bugungi kunning o'ta dolzarb muammolardan biridir. Shuning bilan birga, baliqchilik tarmog'ini yanada rivojlantirish hamda baliqchilik tarmog'ini to'yimli ozuqa yemi va qo'shimchalari bilan ta'minlash borasida muhim tadqiqotlar olib borilmoqda [3]. Bugungi kunda baliq yetishtirilayotgan vaqtinchalik suv xozalarida boqilayotgan baliqlar uchun zooplankton va fitoplanktonlar biomassasini oshirish orqali baliqchilikda ozuqa yemi sifatida avvaldan foydalaniladigan ananaviy ozuqalardan kamroq foydalanish imkonini berish bilan birga iqtisodiy rentabilitikni ham oshirish mumkinligi tajriblarda o'z ifodasini topmoqda. Tadqiqot ishida vaqtinchalik suv xovzalarda boqiladigan baliqlar uchun ozuqa sifatida qo'llaniladigan asosiy zooplankton organizmlarning ozuqaviy tarkibini aniqlashni maqsad qilib olindi. Ilmiy adabiyotlardan ma'lumki zooplankton organizmlar biomassasi tarkibida xar-xil oqsillar, erkin aminokislotalar, to'yinmagan yog' kilotlari, mikro va makroelementlar hamda biologik faol moddalarga boyligi uchun baliq lischinkalarini yetishtirishda muhim tabiiy manbalardan biri hisoblanadi. Oqsillar tarkibida va erkin holda kam miqdorda uchraydigan hamda almashib bo'lmaydigan aminokislotalardan lizin va metionin baliq chavoqlariga beriladigan boshqa turdag'i ozuqalar tarkibida oz miqdorda uchrasha tirik ozuqa yemi sifatida foydalaniladigan zooplanktonlar biomassasi tarkibida sezilarli darajada ko'p miqdorda uchraydi. *Ankistrodesmus* va *Botryococcus* kabi fitoplanktonlar asosida sanoat usulida yetishtirilgan zooplankton organizmlar biomassasi tarkibidagi to'yinmagan yog' kislotalar tabiiy sharotlarda uchraydigan zooplanktonlar biomassasi tarkibidagiga nisbatan ko'p miqdorda uchraydi. Shu boisdan ham baliq chovoqlarini yetishtirishda sanoat usulida ko'paytirilgan zooplanktonlar muhim ahamiyatga egaligi diqqatga sazovordir. Vaqtinchalik suv havzalarida yetishtiriladigan baliq chavoqlariga tirik ozuqa yemi sifatida maxsus basseynlarda yetishtirilgan *Daphnia* turlarini berib borilishi lichinkalarni yashovchanligiga, biologik ko'rsatkichlarni oshishiga hamda zooplankton organizmlar biomassasi tarkibida sifatli oqsillarni ko'p miqdorda bo'lishiga olib keladi va bu o'z navbatida baliqlar tez vazn to'plashiga zamin yaratadi [3,4]. Barcha turdag'i zooplankton organizmlarni sanoat asosida ko'paytirish va baliqchilik tarmog'i uchun uzuksiz ta'minotni yaratish maqsadida ko'plab ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda [5]. Mazkur tadqiqot ishlarida asosan zooplankton organizmlarni ko'paytirishda mikrosuvu'tlaridan, ko'pchilik hollarda Chlorella yoki Scenedesmus turlaridan foydalanilgan [6].

### ISHNING MAQSADI

Tadqiqotning maqsadi *Daphnia* turlarini suniy sharoitda ishlab chiqarish uchun ozuqa manbai sifatida mikrofitlardan foydalanib *Daphnia* turlarini biologik ko'rsatkichlari hamda biomassa tarkibidagi yog' va oqsil miqdorini aniqlashdan iborat. *Daphnia* turlarini Andijon viloyati hududidagi doimiy va vaqtinchalik suv havzalaridan ajratib olingan. Toshkent kimyo-texnologiya instituti, "Biotexnologiya va mikrobiologiya" ilmiy laboratoriyasida kolleksion zooplankton organizmlar sifatida saqlanayotgan *Daphnia magna* kulturasidan foydalanildi. Mikrofitlarni ozuqaviy ahamiyatini aniqlashda, dafniyani o'stirish uchun nazorat ozuqa muhitini sifatida organik ozuqa muhitidan foydalanildi. Ushbu tajriba davomida *Daphnia* uchun bir haftada yangilangan tarkibli ozuqadan ikki marotaba berib boriladi va nazorat olib borildi. Tadqiqot obyektlarining oqsillar miqdorini aniqlashda Loury usulidan [8], yog' miqdorini aniqlashda standart usulidan foydalanildi [9]. Tajriba ma'lumotlariga statistik xato, o'rtacha, ishonchlik intervallari hamda standart og'ishlarni hisoblash STATISTICA 6.0 kompyuter dasturi va standart usullar yordamida bajarildi. Natijalarning statistik ahamiyati Student t-kriteriyasi yordamida aniqlandi.

### NATIJALAR VA ULARNING MUXOKAMASI

*Daphnia* turlaridan biomassa olish uchun sun'iy boshqariladigan sharoitda yetishtirish keng qo'llaniladi. Zooplankton organizmlardan *Daphnia* turlarni ko'paytirishda Scenedesmus quadricauda kulturasidan keng foydalanishadi [10]. Tadqiqotlar davomida Chu-13 ozuqa muhitidan foydalangan holda tadqiqot obyekti bo'lgan *Daphnia* turlarini biologik ko'rsatkichlari o'rganildi. Bunda xarorat doimiy 21-26°C deb belgilandi [3]. Tadqiqotlar olti oy davomida kuzatilib, *Daphnia*

turlarining Ch-13 ozuqa muhitidagi biologik ko'rsatkichlari va biometrik o'lchamlari aniqlandi. Olingen natijalarga ko'ra o'rganilgan Daphnia turlarini biometrik va biologik ko'rsatkichlari ilmiy manbalarda ko'rsatib o'tilgan ma'lumotlardan keskin farq qilmaydi. Chu-13 ozuqa muhitida o'stirilganda yashash davomiyligi 57- 60 kun, o'rtacha uzunligi 1,35-1,7 mm bo'lganligi aniqlandi. Tajribada aniqlangan biometrik ko'rsatkichlar standart ozuqa muhiti va achitqilar asosidagi ozuqa bilan birgalikda keyingi tajribalar uchun indikator varianti sifatida foydalanildi.

Tajribalar davom ettirilib Daphnia turlarining biomassa hosil qilish hajmi aynan ozuqasiga bog'liqligi aniqlanildi. Olingen natijalarga ko'ra mikrofitlarining avlodlari va ularning ozuqavly qiymatiga bog'liq holda o'zgaruvchan bo'lishi qayd etildi. Daphnia turlarining o'sish tezligi ozuqaga bog'liq bo'lib, standart ozuqa muhitiga nisbatan Ankistrodesmus -0,5059, Scenedesmus - 0,4384, Botryococcus - 0,5745, Chlorella - 0,3168 va Chlorococcum - 0,7458 % ni tashkil etishi aniqlandi. Adabiyotlarda ko'rsatib o'tilgan ko'rsatkichlardan farq qilib Dahnianing aynan Chlorella avlod shtammlari bilan oziqlantirilganda optimal o'sish tezligi 1,3369 % ni tashkil etgan bo'lsa, Chlorococcum avlod shtammlarida - 0,7458 % ni tashkil etib, xlorellaga nisbatan 56,7% ga, Scenedesmus avlod shtammlariga nisbatan 47,2% yuqori tezlik namoyon etganligi aniqlandi. Daphnia turlarini ko'payishiga mikrofitlar ta'siri keyingi tadqiqotlarda mikrofitlar avlodlari asosida tayyorlangan ozuqa muhitida o'stirilgan Daphnia turlarining quruq moddaga nisbatan oqsil va yog' saqlashi o'rganildi.

### XULOSA

Tajriba natijasida olingen natijalar xulosasiga ko'ra baliq sanoati uchun oziq yemlarini tizimli ishlab chiqarishdagi tuzulmalarda alternativ o'zgarishlar kutilmoqda. Shu bilan birga ushbu tadqiqot natijalari tabiy texnologik yechimga ega ozuqa bazasini shakillantirishda zooplankton organizmlar guruhiга mansub Daphnia turlarini sanoat asosida yetishtirishni unumli texnologiyalarini shakllantirish, va bu turlar uchun oziq bo'ladigan tabiy zaxirasini tizimli yo'liga qo'yishda mikrofitlardan Botryococcus va Ankistrodesmus avlodiga mansub bo'lgan shtamlaridan foydalanilsa baliqchilik sanoatidagi iqtisodiy rentabilitikni shuning bilan birga aholi oziq ovqat ratsionini oshishiga ham olib keladi.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

- Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 6 апрелдаги "Балиқчилик тармоғини жадал ривожлантиришга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида" ПҚ-3657-сон қарори.
- Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 6 ноябрдаги "Балиқчилик соҳасини янада ривожлантиришга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисидаги "ги ПҚ №4005-сонли қарори.
- Абдиназаров Х.Х., Кучбоев А.Э., Мадумаров М.Э. Дафниялар балиқларнинг табиий озуқа манбаи// Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси 2020-2/1 Хива – 2020. –Б. 4-6.
- Мираабдуллаев И.М. *Moina weismanni* (Crustacea, Cladocera) – новый представитель фауны России и Средней Азии // Зоол. журн. – 1992 – № 11. –С. 136–139.
- Абдиназаров Х.Х. Фарғона водийси сув ҳавзалари зоопланктони: Автореферат дисс.... биология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD). –Тошкент, 2019. –Б. 18.
- Assessment of phytochemical components, proximate composition and antioxidant properties of *Scenedesmus obliquus*, *Chlorella vulgaris* and *Spirulina platensis* algae extracts. Ghadir A. El-Chaghaby, Sayed Rashad, Shereen F. Abdel-Kader, El-Shimaa A. Rawash and Muhammad Abdul Moneem // Egyptian Journal of Aquatic Biology & Fisheries Zoology Department, Faculty of Science, Ain Shams University, Cairo, Egypt. ISSN 1110 – 6131 Vol. 23(4): 521 – 526 (2019).
- Khujamshukurov N.A.2004. Stady protein compounds bacterium *Bacillus thuringiensis*. Uzbekistan Agrarian Science Bulletin. 1(15):41-45.
- Rajasri Y, Ramgopal SR, Rao CS. Lipid accumulation studies In *Chlorella pyrenoidosa* using customized photobioreactor- effect of nitrogen source, light intensity and mode of operation. J Eng Res. Appl. 2012;2:2446-2453.
- Ranta E., Bengtsson J., McManus J. 1993. Growth, size and shape of *Daphnia longispina*, *D.magna* and *D. pulex*. Ann.Zool. Fennici. 30:299-311.